

“O‘zavtosanoat” AJ faoliyatida ochiq e’lon qilinishi lozim bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlarni axborot resurslarida joylashtirish va yangilab borish tartibini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minalash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6247-son Farmoni ijrosini ta’minalash maqsadida,

B U Y U R A M A N:

1. “O‘zavtosanoat” AJ faoliyatiga oid ochiq e’lon qilinishi lozim bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlar ro‘yxati (**keyingi o‘rinlarda - Ro‘yxat**) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ro‘yxatga kiritilgan ma’lumotlarni rasmiy veb-sayt, Ochiq ma’lumotlar portalni va boshqa axborot resurslariga joylashtirishning quyidagi tartibi o‘rnatilsin:

2.1. Ochiq e’lon qilinishi lozim bo‘lgan har bir ma’lumot mas’ul tarkibiy tarmoq tomonidan belgilangan shaklda, sifatli va to‘liq shakllantirib, ularni elektron shaklda Axborot xizmatiga taqdim etiladi;

2.2. Axborot xavfsizligi va axborot texnologiyalarini rivojlantirish boshqarma boshlig‘i G‘.Xusainov va Jamoatchilik bilan aloqalar va davlat organlari bilan o‘zaro hamkorlik xizmati rahbari Z.Shadjalilova taqdim etilgan ma’lumotlarning rasmiy veb-sayt, Ochiq ma’lumotlar portalni va boshqa axborot resurslariga belgilangan format va o‘lchamlarda joylashtirilishini ta’minalaydi.

3. Mas’ul tarkibiy tarmoqlar tomonidan Ro‘yxatda ko‘rsatilgan ma’lumotlarni Axborot xavfsizligi va axborot texnologiyalarini rivojlantirish boshqarmasi va Jamoatchilik bilan aloqalar va davlat

organlari bilan o‘zaro hamkorlik xizmatiga taqdim etishning oxirgi muddati (ma’lumotlarni yangilab borish muddati qonunchilik hujjatlarida aniq belgilangan holatlar bundan mustasno) quyidagi tartibda hisoblanadi:

- 3.1. Doimiy (muntazam) yangilab boriladigan ma’lumotlar –**bir sutkadan kechiktirilmay;**
- 3.2. Har oyda yangilab boriladigan ma’lumotlar – keyingi oyning **uchinchi sanasiga qadar;**
- 3.3. Har chorakda yangilab boriladigan ma’lumotlar – har chorak yakunidan keyingi oyning **beshinchi sanasiga qadar;**
- 3.4. Har yarim yillikda (har olti oylik) yangilab boriladigan ma’lumotlar har olti oy yakunidan keyingi oyning **o’ninchisi sanasiga qadar;**
- 3.5. Har yillik (bir yilda bir marotaba) yangilab boriladigan ma’lumotlar – har yil yakunidan keyingi yilning **15-fevralga qadar.**
4. “O‘zavtosanoat” AJ faoliyatiga oid ochiq e’lon qilinishi lozim bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlarning namunaviy shakllari **2-35-ilovalarga** muvofiq tasdiqlansin.
5. Rasmiy veb-sayt, Ochiq ma’lumotlar portalini va boshqa axborot resurslarini yuritish, ma’lumotlarni ochiqlikni ta’minlashga oid qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tartib-taomillar asosida (veb-manzil, format, o‘lcham, shakl va boshqa talablar) joylashtirish (e’lon qilish) hamda davriy yangilab borishga Jamoatchilik bilan aloqalar va davlat organlari bilan o‘zaro hamkorlik xizmati rahbari Z. Shadjalilova mas’ul ekanligi qayd etilsin.
6. Ro‘yxatda ko‘rsatilgan ochiq ma’lumotlarni ishlab chiqilishiga mas’ul etib belgilangan tarkibiy tarmoq rahbar va xodimlari ularni o‘z vaqtida, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hajmda, sifatli va to‘liq shakllantirish hamda Jamoatchilik bilan aloqalar va davlat organlari bilan o‘zaro hamkorlik xizmatiga taqdim etilishiga mas’ul va shaxsiy javobgar etib belgilansin.
7. Ma’lumotlarni o‘z vaqtida taqdim etmagan yoki noto‘g‘ri ma’lumot taqdim qilgan tarkibiy tarmoq rahbar va xodimlari qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi haqida

ogohlantirilsin.

8. Jamoatchilik bilan aloqalar va davlat organlari bilan o‘zaro hamkorlik xizmati rahbari Z. Shadjalilova:

8.1. “O‘zavtosanoat” AJning ochiqlikni ta’minlash sohasini doimiy muvofiqlashtirib borsin;

8.2. Tahlillar va keng jamoatchilik fikrini o‘rganish asosida rasmiy veb-saytda ochiq e’lon qilinishi lozim bo‘lgan ma’lumotlarning ko‘lamini kengaytirish, sifatini oshirish va dolzarbligini ta’minlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqsin hamda ularni amalga oshirish choralarini ko‘rsin;

8.3. “O‘zavtosanoat” AJ faoliyatiga oid ochiq ma’lumotlarni ishlab chiqilishiga mas’ul etib belgilangan tarkibiy tarmoqlar tomonidan ma’lumotlarni Axborot xizmatiga taqdim etish tartibining buzilishi holatlari haqida munosabat bildirish yuzasidan rahbariyatga o‘z vaqtida takliflarni kiritib borsin.

9. Ma’muriyat va hujjatlar ijrosi nazorati boshqarmasi boshlig‘i M.Zoxidov mazkur buyruqni belgilangan tartibda tegishli tarkibiy bo‘linma rahbarlariga yetkazilishini ta’minlasin.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Boshqaruva raisining o‘rinbosarlari zimmasiga yuklansin.

“O‘zavtosanoat” AJning 2024-yil “ 11 ” mart
26-030-sonli buyrug‘iga 1- ILOVA

“O‘zavtosanoat” AJ faoliyatida ochiq e’lon qilinishi lozim bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlar

RO‘YXATI

| Nº | E’lon qilinishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar toifasi | Ma’lumot joylashtiriladigan axborot resurslari | Taqdim etish va yangilab borish muddati* | Ishlab chiqish va e’lon qilish uchun mas’ullar* | Ijro etilishi ustidan nazoratini ta’minlashga mas’ul | Namunaviy shakllarning ilova raqami |
|----|---|---|--|---|--|-------------------------------------|
| 1. | O‘z faoliyatiga oid hisobot (<i>davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo‘ljallangan ma’lumotlar bundan mustasno</i>) | Rasmiy veb-sayt | Har yili 1-martga qadar | X. Akilov Z. Shadjalilova | Z. Shadjalilova Sh. Ergasheva | 2-ilova |
| | O‘z faoliyatiga oid hisobotni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish joyi va vaqtি haqida xabar berish (<i>axborot resurslarida e’lon qilish</i>) | Rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlardagi saxifalar | Har yili 10-martga qadar | Z. Shadjalilova | Z. Shadjalilova Sh. Ergasheva | |
| | O‘z faoliyatiga oid hisobotni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilinishiga oid o’tkazilgan matbuot anjumanlari haqidagi ma’lumotlarni e’lon qilish | Rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlardagi saxifalar | Har yili 1-aprelga qadar | Z. Shadjalilova | Z. Shadjalilova Sh. Ergasheva | |
| 2. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi hujjalari bilan soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferensiyalar, shu jumladan individual imtiyozlar berilgan subyektlar, ularning yakuniy benefitsiar (<i>foyda oluvchi</i>) jismoniy shaxslari, ularning to‘lagan soliqlari va moliyaviy ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi axborotlar | Ochiq ma’lumotlar portalı, rasmiy veb-sayt | har chorak yakunidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar | B. Mirzayev G. Xusainov | Z. Shadjalilova Sh. Ergasheva | 3,6-ilova |
| 3. | Davlat xaridlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shu jumladan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid qilinadigan tovarlar (<i>ishlar, xizmatlar</i>) | Ochiq ma’lumotlar portalı, rasmiy veb-sayt | har chorak yakunidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar | A. Rustamov G. Xusainov | Z. Shadjalilova Sh. Ergasheva | 4,5,10-ilova |

| | | | | | | |
|----|--|--|--|----------------------------|----------------------------------|-------------|
| | | | | | | |
| 4. | Mansabdor shaxslarning xizmat safarlari va xorijdan tashrif buyurgan mehmonlarni kutib olish xarajatlari (<i>xizmat safarining yoki tashrifning maqsadi, sutkalik pul, transport va yashash bilan bog'liq xarajatlar (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno).</i>) | Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-sayt | har chorak yakunidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar | O. Atabayev G. Xusainov | Z. Shadjalilova Sh. Ergasheva | 7,8,9-ilova |
| 5. | Davlat xaridlari va investitsiya loyihalari doirasida hamda ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish bo'yicha tashkil etiladigan xarid komissiyasi tarkibini tasdiqlash haqidagi qaror hamda komissiya a'zolarining ma'lumotlari (<i>familiyasi, ismi va otasining ismi, ish joyi va egallab turgan lavozimi</i>) | Rasmiy veb-sayt | Doimiy ravishda (bir sutkadan kechiktirmay) | A. Rustamov G. Xusainov | Z. Shadjalilova Sh. Ergasheva | 11,12-ilova |
| 6. | Ustav fondida (<i>ustav kapitalida</i>) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar hamda davlat unitar korxonalari ro'yxati (<i>davlat nomidan aksiyador (ishtirokchi, mulkdor) funksiyalarini amalga oshirayotgan tashkilot, korxona hududi, soliq to'lovchining identifikatsiya raqami, davlat ulushi to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rsatgan holda</i>), shuningdek, ustav fondining (<i>ustav kapitalining</i>) 50 foizi va undan ortig'i davlat ishtirokidagi korxonalarga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar ro'yxati | Ochiq ma'lumotlar portali | har chorak yakunidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar | S. Gafarov G. Xusainov | Z. Shadjalilova Sh. Ergasheva | 14-ilova |

| | | | | | | |
|-----|---|---|--|---|----------------------------------|-----------------|
| 7. | O'zları aksiyador (<i>ishtirokchi, mulkdor</i>) funksiyalarini bajaruvchi davlat ishtirokidagi korxonalarning ijroiya organi (<i>direktor, boshqaruv raisi, boshqaruv a'zolari</i>) va kuzatuv kengashi a'zolarining ismi va familiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar | Ochiq ma'lumotlar portali | har chorak yakunidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar | A. Kurbanov G. Xusainov | Z. Shadjalilova Sh. Ergasheva | 15- ilova |
| 8. | Davlat ishtirokidagi korxonalar, shuningdek, ushbu korxonalarga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar tasarrufidagi yengil avtomobillar, xizmat uylari va boshqa ko'chmas mulklar to'g'risidagi ma'lumotlar | Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-sayt | har chorak yakunidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar | F.Karimov M.Zoxidov G. Xusainov | Z. Shadjalilova Sh. Ergasheva | 16,17- ilova |
| 9. | Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan yil (<i>chorak</i>) yakuni bo'yicha to'langan dividendlar to'g'risidagi ma'lumotlar | Ochiq ma'lumotlar portali | har chorak yakunidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar | O. Atabayev B. Mirzayev G. Xusainov | Z. Shadjalilova Sh. Ergasheva | 18- ilova |
| 10. | Davlat ishtirokidagi korxonalarga sarflangan Davlat budjeti mablag'ları, tegishlicha xorijdan jalb etilgan mablag'lar, shu jumladan davlat tashqi qarzi summaları hamda ularning sarflanishi to'g'risidagi ma'lumotlar | Ochiq ma'lumotlar portali | har chorak yakunidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar | O. Atabayev G. Xusainov | Z. Shadjalilova Sh. Ergasheva | 19- ilova |
| 11. | Davlat muassasaları ro'yxati (<i>tashkil topgan sanasi, yuqori turuvchi organ</i>) hamda xususiyashtirilgan davlat mulki obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlar (<i>davlat sirini tashkil etuvchi maxfiy vazifa yuklatilgan davlat korxonalari va muassasaları bundan mustasno</i>) | Ochiq ma'lumotlar portali | har chorak yakunidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar | F.Karimov G. Xusainov | Z. Shadjalilova Sh. Ergasheva | 20,21- ilovalar |
| 12. | Tasdiqlangan yillik xarajatlar smetasi bilan bir qatorda, uning ijrosi, shu jumladan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash ishlari, avtomototransport | Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-sayt | har chorak yakunidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar | X. Akilov G. Xusainov | Z. Shadjalilova Sh. Ergasheva | 22- ilova |

| | | | | | | |
|-----|---|--|--|----------------------------------|----------------------------------|-------------|
| | vositalarini sotib olish va saqlash xarajatlari to‘g‘risidagi va boshqa ma’lumotlar | | | | | |
| 13. | Ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam olayotgan shaxslar (<i>14 yoshgacha bolalari bo‘lgan oilalarga nafaqa, bola ikki yoshga to‘lguniga qadar uni parvarish qilish nafaqasi, kam ta‘minlangan oilalarga moddiy yordam hamda un va qolipli non xarid qilish bo‘yicha qo‘srimcha xarajatlarni qoplash uchun har oylik pulli kompensatsiyani olayotganlar</i>) haqida hamda ishsizlik nafaqasini olayotgan shaxslar (<i>familiyasi, ismi va otasining ismi, tug‘ilgan sanasi</i>) to‘g‘risidagi viloyat, tuman, shaharlar kesimidagi ma’lumotlar | Ochiq ma’lumotlar portali, rasmiy veb-sayt | har chorak yakunidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar | O. Atabayev G. Xusainov | Z. Shadjalilova Sh. Ergasheva | 25-ilova |
| 14. | Uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan shaxslarning ipoteka krediti bo‘yicha dastlabki badal va (yoki) foizlarning bir qismini qoplash uchun Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan subsidiyalar ajratish haqida bergen arizalari ro‘yxati (<i>navbatni</i>) to‘g‘risidagi ma’lumotlar | Rasmiy veb-sayt | bir sutkadan kechiktirmay | O. Atabayev G. Xusainov | Z. Shadjalilova Sh. Ergasheva | 26-ilova |
| 15. | Davlat organlari va tashkilotlari huzuridagi jamoatchilik kengashining tasdiqlangan a’zolari haqidagi ma’lumotlar bilan bir qatorda ularning aloqa ma’lumotlari (<i>telefon, pochta va elektron manzillari</i>) hamda jamoatchilik kengashining yig‘ilishlari va kun tartibidagi masalalar | Rasmiy veb-sayt | har chorak yakunidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar | Z. Shadjalilova Sh. Ergasheva | Z. Shadjalilova Sh. Ergasheva | 27,28-ilova |

| | | | | | | |
|-----|--|-----------------|---|---|----------------------------------|----------|
| 16. | Tasdiqlangan yarim yillik va (yoki) yillik ish rejalari (<i>davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno</i>) | Rasmiy veb-sayt | har olti oy yakunidan keyingi oyning 15-sanasiga qadar | X.Akilov G. Xusainov | Z. Shadjalilova Sh. Ergasheva | 35-ilova |
| 17. | O'zlarining tarkibiga kiruvchi davlat muassasalarining nomi, faoliyat turi, funksiya va vakolatlari hamda rahbarlari to'g'risidagi ma'lumotlar | Rasmiy veb-sayt | har chorak yakunidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar | F.Karimov G. Xusainov | Z. Shadjalilova Sh. Ergasheva | 31-ilova |
| 18. | Davlat budgeti, shuningdek, xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalar, shu jumladan istiqbolli investitsiya va infratuzilma loyihalari bo'yicha ularning asosiy texnik ko'rsatkichlari va boshqa loyiha hujjatlari to'g'risidagi ma'lumotlar | Rasmiy veb-sayt | har olti oy yakunidan keyingi oyning 15-sanasiga qadar | I. Sharipov X.Nuriddinova G. Xusainov | Z. Shadjalilova Sh. Ergasheva | 32-ilova |
| 19. | Davlat organlari va tashkilotlarida davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillarini belgilovchi xarid komissiyasining ichki idoraviy tartibi (nizom, reglament, yo'riqnomaga yoki boshqa ichki idoraviy hujjat) | Rasmiy veb-sayt | har chorak yakunidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar | A. Rustamov G. Xusainov | Z. Shadjalilova Sh. Ergasheva | 33-ilova |
| 20. | Bo'sh ish o'rnlari (markaziy, hududiy va tizim tashkilotlarida), ishga qabul qilish shartlari, nomzodlarga qo'yiladigan talablar va taqdim qilinishi lozim bo'lgan hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlar. | Rasmiy veb-sayt | har chorak yakunidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar | Z.Zikiryayev G. Xusainov | Z. Shadjalilova Sh. Ergasheva | 34-ilova |

* Mazkur ilovaning to'rtinchı ustunida ko'rsatilgan muddatlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6247-son farmonida belgilangan muddatlar bo'lib, ma'lumotlar ushbu muddatlarga mutanosib ravishda tegishli axborot resurslarida e'lon qilinishi (joylashtirilishi) lozim. Ochiq ma'lumotlarni ishlab chiqishga mas'ul tarmoqlar tomonidan belgilangan ma'lumotlarni farmoyishning **3-bandida** ko'rsatilgan muddatlarda Axborot xizmatiga taqdim etishlari kerak.

* Mazkur ilovada ko'rsatilgan ochiq ma'lumotlarni ishlab chiqish, e'lon qilish va ijro etilishi ustidan nazorat qilishga mas'ul bo'lgan tarkibiy tarmoq xodimlari boshqa ishga o'tgan taqdirda, ushbu vazifalarini bajarishga ushbu lavozimiga yangi tayinlangan xodimlar mas'ul hisoblanadi.

